

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
jamoasi a’zolarining (professor-o‘qituvchi va jamoasi a’zolari) korrupsiyaga qarshi  
kurashish va odob-axloq qoidalarini**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu universitet jamoasi a’zolarining korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalarini (*keyingi o‘rinlarda “Qoidalar” deb yuritiladi*) jamoa a’zolarining egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar korrupsiyaga qarshi kurashish, kasbiy odob-axloqning umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalarini yig‘indisidan iborat.

2. Qoidalar korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga, davlat xizmatchilarini yuksak huquqiy ongliklik, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy xujjatlariga qat’iy rioya qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

3. Jamoa a’zosining Qoidalarga amal qilishi universitetga ishga qabul qilingan kundan e’tiboran kelib chiqadi. Ishga kirayotgan shaxslar Qoidalar bilan imzo qo‘ydirgan holda tanishtiriladilar.

4. Jamoa a’zolari barcha qonun xujjatlari va Qoidalar talablariga rioya etishlari shart. Qoidalarga rioya etish jamoa a’zosining kasbiy foydalarini va xizmatdagi xulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

**II. Jamoa a’zolarining xizmatdagi xulq-atvorining asosiy  
prinsiplari va qoidalarini**

**5. Jamoa a’zolari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:**

- a) qonuniylik;
- b) fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- v) ochiqlik va shaffoflik;
- g) tizimlilik;
- d) davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- ye) vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoyilik;
- yo) davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;
- j) adolatlik, halollik va xolislik;
- z) manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- i) korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- y) javobgarlikning muqarrarligi.

k) Professor-o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlarida – yagona jamoa, o‘zaro hurmat va e’tibor, do‘stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillari amal qilishi lozim.

l) Professor-o‘qituvchilar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o‘zganing intellektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish, o‘zgalarga ma’naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat’iyan man etiladi.

**6. Jamoa a’zolari quyidagilarga majbur:**

- odob-axloq qoidalariga rioya qilishda barchaga namuna bo‘lish;
- universitet manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlardan o‘zlarini tiyish;
- biror-bir noxush voqea yoki xodisa ro‘y bersa, zudlik bilan u haqida ma’muriyatga xabar berish;
- universitet sha’ni va nufuziga dog‘ tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;

universitet to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish uchun yoki o'z manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;

dars jarayonida talabalarga odob-axloqqa oid milliy an'analарimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni targ'ib qilish;

yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan ogoh etib borish;

ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashish.

xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat'iy rioya etish;

o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;

yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida sifatli bajarish;

o'z faoliyatini qonun xujjatlarida va ichki xujjatlarida belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;

o'z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil bo'lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;

o'z xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlariga barham berish;

normativ-huquqiy xujjat va idoraviy xujjatlarda belgilangan cheklashlar va ta'qiqlarga rioya qilish, o'z xizmat vazifalarini og'ishmay bajarish;

o'z xizmat faoliyatiga biror-bir ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga barham berish;

O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlat xalqlarining urf-odatlarini va an'analарini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo totuvlikka ko'maklashish;

o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek o'z obro'siga yoki davlat organining nufuziga zarar yetkazishga qodir bo'lgan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik;

xizmat mavqeidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmaslik;

sohada korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga doir chora- tadbirlarni amalga oshirish;

7. Siyosiy, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik, shuningdek, shaxsiy vajlar va boshqa sub'ektiv sabablar jamoa a'zolarining qonun hujjatlari talablarini va Qoidalarni buzishga asos bo'la olmaydi.

8. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, jamoa a'zolariga o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko'rish ta'qiqlanadi.

9. Jamoa a'zolari korrupsiya holatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasiga faol ko'maklashishi shart.

Jamoa a'zolari o'z rahbarlarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to'grisida, shuningdek, boshqa jamoa a'zolari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lgan har qanday holatlari haqida xabardor qilish shart.

Rahbarlar qonunchilikning buzilishi faktlari to'g'risida murojaat qilgani munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun, xuddi shuningdek, boshqacha shaklda tanqid qilgani uchun jamoa a'zosining ishdan bo'shatilishiga yoki boshqacha shaklda ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashi kerak.

10. Jamoa a'zolari kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rishlari shart, ularning oshkor etilganligi uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

11. Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi jamoa a'zolariga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o'rnak bo'lishi, davlat organida yoxud uning tarkibiy yoki hududiy bo'linmasida ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashish lozim, u o'ziga bo'ysunuvchi jamoa a'zolaridan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamaslik kerak.

Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymasligi zarur. U guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko'rinishlari, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olishi lozim.

**Rahbar:**

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibiga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rish;

korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish choralari ko'rish;

jamoa a'zolarini samarali boshqarish, o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart. Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvor prinsiplari va Qoidalarni buzayotgan jamoa a'zolarining xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo'l qo'yilmasligi uchun javob beradi.

12. Jamoa a'zolari o'zlarining xizmat vazifalariga bo'lgan munosabati bilan jamoada ishchanlik, o'zaro xayrixohlik va amaliy hamkorlik muhitini qaror toptirishga intilishlari kerak.

Jamoa a'zolari xushmuomala, iltifotli, odobli, e'tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan o'zaro munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart. Jamoa a'zolari o'ziga bo'ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo'pollik qilmasligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak.

Xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ish shartlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog'liq holda jamoa a'zolarining tashqi ko'rinishi fuqarolarning davlat organiga nisbatan hurmat bilan munosabatdan bo'lishga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi, ular rasmiyligi, vazminligi va tartiblilik bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

13. Jamoa a'zolari xizmatdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Jumladan,

hamjihatlik, o'zaro ishonch, hurmat, bir-biriga g'amxo'rlik qilish hamda ahil-inoqlik jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi muhim shartlardir.

o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyili – bir shaxsning huquqi boshqa shaxsning huquqini paymol qilmasligi lozim, jumladan, jamoa a'zosining so'z erkinligi unga birovga tuhmat qilish, uni haqorat qilish, o'zaro munosabatlarda umum e'tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so'zlardan foydalanish huquqini kafolatlamaydi, e'tiqod erkinligi diniy marosim liboslarida universitetga kelish huquqini kafolatlamaydi, kiyinish erkinligi ta'lim maskanida tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir qilish huquqini kafolatlamaydi va hokazo.

Jamoa a'zolarining universitetga odamlar diqqatini tortadigan tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, shuningdek, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda yoki diniy ibodat libosida, metall zanjirlar, to'g'nog'ichlar, tanaga turli munchoqlar qadagan holda, sport kiyim va poyabzalida kelishi ta'qiqlanadi. Jamoa a'zolari OTMga orasta bo'lib, unga monand kiyimda kelishi lozim.

Jamoa a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi hamda xalqimizning ma'naviy merosini avaylab asrash maqsadida jamoa a'zolari bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishi, behayo so'zlar ishlatishi qat'iy ta'qiqlanadi hamda universitetda o'zaro "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.

jamoa a'zolari turli tadbirlarda (majlislar, tantanali yig'ilishlar, amaliy uchrashuvlar, bayramlarda) so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, maishiy tinchlikka rioya etishi shart. Zarurat taqozo etsa, bir notiq o'z so'zini tugatib, boshqasi so'z boshlashiga qadar yuzaga keladigan uzilish vaqtida zaldan chiqib ketish mumkin.

Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki universitetning ichki muammolariga taalluqli masalalarni Internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish ta'qiqlanadi.

Kompyuterlarda universitetga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish qat'iyan man etiladi.

O'quv mashg'ulotlariga va ishga hamda jamoa a'zolarining osoyishtaligiga halaqit beradigan xatti-harakatlar (radiopriyomnik, televizor, magnitofon va boshqa ovoz kuchaytirish vositalaridan maqsadsiz foydalanish) sodir etish ta'qiqlanadi.

TATU jamoa a'zolari dars mashg'ulotlari va ishga belgilangan kun tartibiga ko'ra o'z vaqtida kelishlari shart.

Universitetda har qanday huquqbuzarlik sodir etish ta'qiqlanadi, shu jumladan, tuhmat qilish, haqorat qilish, jamoa a'zosiga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotni tarqatish, tan jarohati yetkazish, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan vositalarga oid munosabatlarga kirishish qat'iyan man etiladi.

#### **14. Professor-o'qituvchilar va talabalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlari:**

Professor-o'qituvchilar va talabalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlari "Ustoz-shogird" milliy an'analariga asoslanishi lozim.

Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun ta'qiqlanadi.

Talaba o'zining nojo'ya harakatlari bilan dars mashg'ulotlariga xalaqit bersa, professor-o'qituvchi yuzaga kelgan vaziyat haqida dekanatni xabardor qilib va uning ruxsati bilan bunday talabani mashg'ulotlardan chetlatishi mumkin.

Talabada professor-o'qituvchi bilan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda muloqot qilish zarurati bo'lsa, unda talaba quyidagi qoidalarni, ya'ni:

- professor-o'qituvchi talaba bilan dars jadvaliga muvofiq mashg'ulotlarda, maslahat soatlarida, mustaqil ishlarni, reyting nazoratini topshirishda yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtda shug'ullanishini;

- o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan professor-o'qituvchining lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini aniq bilishi shart.

Talaba oldindan kelishilmagan holda professor-o'qituvchining huzuriga kelsa, umumiy yoki o'zaro kelishilgan maslahat soatiga kech qolib kelgan yoki kelmagan bo'lsa, professor-o'qituvchidan hatto qisqa vaqt suhbatlashishni talab qilishga ham haqli emas.

Ayrim hollarda talabalar professor-o'qituvchini almashtirish iltimosi bilan murojaat qilishlari mumkin. Buning uchun jiddiy sabablar (qo'pollik, ta'magirlik, professor-o'qituvchining aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar) ko'rsatilishi va u bo'yicha guruhning yagona fikri mavjud bo'lishi shart.

Professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasida reyting nazoratini topshirishga doir ziddiyat kelib chiqqan hollarda, talaba reyting nazoratini maxsus komissiyaga topshirish uchun ruxsat berish iltimosi bilan kafedra mudiriga murojaat etishi mumkin. Bunda murojaat asoslangan bo'lishi shart. Bunday masalalar kafedra mudirining taqdimnomasiga binoan fakultet dekani tomonidan hal etiladi.

#### **15. Professor-o'qituvchilar odob-axloqida man etiladigan holatlar:**

##### **Professor-o'qituvchiga:**

- jamoa a'zolarining shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish, o'zgalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilish;

- jamoa a'zolari va boshqalar ustidan turli ig'vo, g'iybat va bo'htonlar uyushtirish;

- talabalar bilan o'z hamkasblarining kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilish;

- talabalarni asossiz o'quv mashg'ulotlardan chiqarib yuborish;

- o'quv mashg'ulotlarida tijorat reklamasi o'tkazish;

- o'quv mashg'ulotlarida diniy tashviqot olib borish;

- o'quv mashg'ulotlariga mast, soch-soqol olinmagan va kiyinish tartibiga rioya qilmagan holda kelish;
- binolarda ichish va chekish kabilar qat'iy man etiladi.

#### **16. Ma'muriyat, professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasidagi odob-axloqqa oid munosabatlar**

Ma'muriyat, professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro hurmat, ahillik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik, g'amho'rlik va adolat tamoillariga asoslanadi.

Ma'muriyat, professor-o'qituvchilar va xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo'yicha hamkorlik qilishida bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o'tkazishiga yoki unga harakat qilishiga, shuningdek adolat tamoyillariga va TATU manfaatlariga zid bo'lgan qarorlar tayyorlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Lavozim darajalari teng bo'lgan xodimlar o'rtasidagi muammolarni ishchi tartibda hal etish tavsiya etiladi. Lavozim darajalari teng bo'lgan xodimlarning ish jarayonidagi turli muammolarni o'z vakolatlari doirasida, ma'muriyatni jalb etmagan holda hal etishlari ma'qullanadi.

Jamoada biror bir masala bilan ma'muriyatga murojaat qilish tartibi subordinatsiya tamoyili asosida tashkil etiladi.

Professor-o'qituvchi va xodimning universitetda ma'naviy-ahloqiy muhitni yanada yaxshilash bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

Ma'muriyat professor-o'qituvchilar va xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'idan, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanish, shuningdek, hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha imtiyozlarni yaratib beradi.

### **III. Manfaatlarga to'qnashuvi**

17. Jamoa a'zolari o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlarga to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Manfaatlarga to'qnashuvi jamoa a'zolarining shaxsiy manfaatlari ularni o'z xizmat vazifalarini xolisona va beg'araz bajarishga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi.

Jamoasi a'zosilarning shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o'zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo'ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko'rish yoki afzalliklariga ega bo'lishini o'z ichiga oladi.

Manfaatlarga to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda jamoa a'zolari o'z rahbarini darhol xabardor qilishi kerak.

Manfaatlarga to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish shart.

18. Jamoa a'zolari har qanday holatlarda ham o'z xizmat mavqeidan mumkin bo'lmagan shaxsiy foydani olishi mumkin emas.

19. Jamoa a'zolari lavozimga tayinlanayotganda va xizmat vazifalarini bajarayotganda o'zining xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligining mavjudligi yoki mavjud bo'lishi imkoniyati to'g'risida ma'lum qilishi shart.

### **IV. Rag'batlantirish va chora ko'rish tartibi**

O'quv yili davomida "Qoidalar"ga to'la rioya qilgan, TATUda yuksak ma'naviy-axloqiy muhitning yanada qaror topishiga va mustahkamlanishiga xizmat qilgan jamoa a'zolari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari tavsiyasiga binoan, TATU ichki tartib-qoidalariga muvofiq moddiy yoki ma'naviy rag'batlantiriladi.

Jamoa a'zolari ushbu "Qoidalar"ni buzganida, TATU ichki tartib qoidalarida keltirilgan holatlar bo'yicha choralar ko'riladi.

*Shuningdek, jamoa a'zosining xulq-atvori ustidan jamoat nazoratini ta'minlash*

*maqsadida, mazkur qoidalarga rioya etilmaganlik holatlari universitet Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi b.t., Xotin-qizlar b.t Kengashlarida ham muhokama qilinishi va ularning qaroriga binoan jamoa a'zosining hulq-atvori to'g'risida u yashab turgan mahalla fuqarolar yig'iniga ma'lumot tariqasida yozma xabar yuborish amaliyoti ham joriy etilishi mumkin.*

## **V. Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik**

20. Korrupsiyaviy holatlar yoki boshqa huquqbuzarliklar sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

21. Korrupsiyaviy holatlar yoki boshqa huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

22. Jamoa a'zolari tomonidan Qoidalarning buzilishi uni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin.

23. Jamoa a'zolari tomonidan Qoidalarga rioya etilishi attestatsiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tavsiya etish uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda, taqdirlash yoki mukofotlarga tavsiya etishda hisobga olinadi.

24. Qoidalarda nazarda tutilgan normalarning buzilishi Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasi tegishli bo'linmalar jamoasi a'zolaridan odatda 5-11 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, huquqlari, javobgarligi va uning faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari rahbar tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

Qoidalarning buzilishi holatlarini Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqacha tarzda qoida buzilishlarining mavjudligi (*mavjud emasligi*) to'g'risida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda Qoidalarni buzgan jamoa a'zosini javobgarlikka tortish to'g'risidagi taklif rahbarga ko'rib chiqish uchun kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasi jamoa a'zosiga nisbatan Qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Jamoa a'zolari o'zlari yo'l qo'ygani qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, rahbarning qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

25. Zarurat bo'lganda ushbu Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyruqlariga asosan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Muhammad al-Xoraziy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida**  
**korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq**  
**komissiyasi tarkibi**

- |   |                |   |  |
|---|----------------|---|--|
| 1 | S. Babaxodjaev | - | TATU rektori, komissiya raisi;   |
| 2 |                | - | Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor, komissiya raisi o‘rinbosari; |
| 3 | Sh. Sadullaeva | - | O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b., a‘zo;                           |
| 4 | K. Tashev      | - | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, a‘zo;               |
| 5 | Sh. Sindarov   | - | Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;                       |
| 6 | E. Karimova    | - | Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘lim boshlig‘i, a‘zo;  |
| 7 | N. Ashurov     | - | Yuristkonsult, a‘zo;   |
| 8 |                | - | Xodimlar bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;                                      |
| 9 | B. Umirzoqov   | - | Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi, a‘zo.                                |

## **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizam**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom TATU jamoasi a‘zolarining korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalariga amal qilishlarini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.
2. Mazkur Nizom Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Komissiya deb ataladi) vazifalari, vakolatlari va uning ish faoliyatiga oid munosabatlarini belgilaydi.
3. Komissiya a‘zolari jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

### **II. Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasining tarkibi**

4. Komissiyasi rektor, prorektorlar, tegishli tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari, jamot tashkilotlari vakillaridan iborat odatda 5-11 kishilik tarkibda tuziladi.
5. Komissiya ishiga rais, rais bo‘lmagan taqdirda rais o‘rinbosari rahbarlik qiladi.
6. Komissiya tarkibi rektor buyrug‘iga muvofiq tasdiqlanadi.

### **III. Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasining vazifalari**

#### **7. Komissiya:**

Universitet jamoasi a‘zolarini korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalari (*keyingi o‘rinlarda “Qoidalar” deb yuritiladi*) bilan tanishtiradi hamda Qoidalarning mazmun va mohiyati to‘g‘risida keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib boradi;

Universitet jamoasi a‘zolari uchun seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha reja ishlab chiqadi va tadbirlarni tashkil etadi;

jamoasi a‘zosilar tomonidan shaxslar qonunchilikning buzilishi faktlari to‘g‘risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun ishdan bo‘shatilishiga yoki boshqacha shaklda ta‘qib qilinishiga yo‘l qo‘ymasligini ta‘minlaydi;

jamoasi a‘zosilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, sohada korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etadi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta‘minlaydi;



korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'adi hamda tahlil etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholaydi.

Komissiya Qoidalar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq komissiyasining huquq va majburiyatlari**

8. Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

jamoasi a'zosalarning Qoidalarga rioya etishlari ustidan nazorat va monitoringni amalga oshirish;

korrupsiya va huquqbuzarliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar, shuningdek jamoasi a'zosalarning odob-axloqi yuzasidan taklif va xulosalar tayyorlash;

Qoidalarning buzilishi holatlari yuzasidan tekshiruv o'tkazish hamda qoidalarni buzgan jamoasi a'zosalarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bo'yicha takliflar berish;

Komissiya Qoidalar, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

9. Komissiya Qoidalar va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, o'ziga yuklatilgan vazifalarning bajarilishiga javobgar hisoblanadi.